

## KUTUBXONA FAOLIYATINING SIFATINI ORTTIRISHDA ZARURIY CHORA TADBIRLAR

**O'ktamova Umriniso O'tkirjonovna**

Termiz davlat universiteti, Pedagogika va ijtimoiy ish fakulteti

Kutubxona va axborot faoliyati talabasi.

Tel: +998-99-388-11-27 E-mail: [uktamovaumriniso@gmail.com](mailto:uktamovaumriniso@gmail.com)

**Suvanov Husniddin Norqulovich**

Ilmiy rahbari: Termiz davlat universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Tel: +998-97-786-88-05 E-mail: [hsuvanov@tersu.uz](mailto:hsuvanov@tersu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287709>

**Annotatsiya.** Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, quyidagilarni kiritish mumkin: Kitob fondini yig'ish (qog'oz holati yoki elektron holatda), Kitob fondini tashkil etish, fond mazmunini yoritish, kitoblarni kitobxonlarga yetkazish, kitobxonlarga kitob o'qishi uchun sharoitlar yaratish kabi asosiy funksiyalar yoritilgan. Kutubxonalarning kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy vazifasi quyidagicha belgilangan bo'lib, bular xushmuomala bo'lish, kitoblar bazasini kengaytirish, kitobxonga o'qishi uchun qulay sharoit yaratish, bor kitoblarni topib berish;

**Kalit so'zi:** Kitobxon kitob, fond, kutubxona, gazeta, jurnal.

## NECESSARY MEASURES TO IMPROVE THE QUALITY OF LIBRARY ACTIVITIES

**Abstract.** Library service is the main activity of the library, which can include the following: Collecting a book fund (in paper or electronic form), organizing a book fund, highlighting the content of the fund, delivering books to readers, creating conditions for readers to read books, etc. The main tasks of libraries in providing service to readers are defined as follows, which are to be courteous, expand the book base, create comfortable conditions for readers to read, and find available books;

**Keyword:** Bookworm, book, fund, library, newspaper, magazine.

## НЕОБХОДИМЫЕ МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БИБЛИОТЕКИ

**Аннотация.** Обслуживание читателей является основным видом деятельности библиотеки, который может включать в себя следующее: комплектование книжного фонда (на бумажных носителях или в электронном виде), организация книжного фонда,

*освещение содержания фонда, доставка книг читателям и создание условий для чтения книг читателями. Основные функции охвачены. Основными задачами библиотек по обслуживанию читателей определены: вежливое обращение, расширение книжной базы, создание комфортных условий для чтения читателей, поиск доступных книг;*

**Ключевые слова:** Книжный червь, книга, фонд, библиотека, газета, журнал.

Kutubxona arab tilidan olingan bo‘lib, “kitoblar” ma’nosini anlatadi. Fors tilidan xona so‘zi esa, “uy” ma’nosini bildiradi. Kutubxona so‘zi kitoblar yig‘ilgan joyni anglatadi. Bugungi kunda barcha axborot yig‘iladigan joy ma’nosini bildiradi. Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video va audio tasma, optik disk va boshqa shakllarda bo‘ladi.

Kutubxonalar tashkilot yoki jismoniy shaxs tomonidan tashkil etilishi mumkin.

Kutubxona bosma, qo‘lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta’minlovchi madaniy-ma’rifiy va ilmiy muassasa ma’lumotlar bazasini to‘plovchi hamda kishilarga ma’naviy ozuqa beruvchi ilmiy to‘planmadir. Kutubxonada muntazam ravishda barcha ilmiy va badiiy asarlarni to‘plash, saqlash, targ‘ib qilish mumkin. Kutubxona kitobxonlarga ilmiy va badiiy adabiyotlarni yetkazish funksiyasini bajaradi, shuningdek axborot-bibliografiya ishlari bilan shug‘ullanadi.

Ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko‘rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish kitubxonaning asosiy faoliyati bo‘lib, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kitob fondini yig‘ish(qog‘oz holati yoki elektron holatda)
2. Kitob fondini tashkil etish,
3. Fond mazmunini yoritish,
4. Kitoblarni kitobxonlarga yetkazish
5. Kitobxonlarga kitob o‘qishi uchun sharoitlar yaratish kabilar asosiy faoliyat uchun xizmat kiradi. Kutubxonalarning kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishning asosiy vazifasi:
  - xushmuomala bo‘lish;
  - kitoblar bazasini kengaytirish;
  - kitobxonga o‘qishi uchun qulay sharoit yaratish;
  - bor kitoblarni topib berish;

Kitobxonlarning axborot va adabiyotga bo‘lgan ehtiyojlarini imkon boricha kitoblarni topib berish. Har bir kutubxona o‘z turiga ko‘ra mutolaa qiluvchilarni guruhlariga ajratishiga to‘g‘ri keladi:

- ilmiy adabiyot o‘quvchilar

- badiiy adabiyot o'quvchilar

- jurnal o'quvchilar

- gazeta o'quvchilar kabi turlarga ajratishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan mas'uliyatli ishlarga kerakli mas'ul shaxslarni biriktirish kerak. Alohida kitobxonlar guruhini shakllantirish kutubxona xodimlari uchun ham kitobxon o'quvchilar uchun ham qulay bo'ladi. Vaqtdan unumli foydalangan bo'ladi. Shuningdek, sifatlilik darajasini oshiradi.

Adabiyotlarning tez va oson topilishi kutubxonaning ish faoliyati sifatli ekanini belgilaydi. Mas'ul xodimlar faoliyatini quyidagicha yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq:

- professor-o'qituvchilar ilmiy yangiliklarini to'plovchi va ilmiy tadqiqodchilarga foydalanishiga sharoit yaratish;

- gazeta uchun she'r va maqola beruvchilar ma'lumotlarini to'plovchi;

- chop etilgan gazetalarni gazeta o'quvchisilarga ulashuvchi xodim;

- jurnalga ilmiy ma'lumotlar va ijodiy faoliyatlarni to'plovchi xodim;

- jurnallarni jurnal o'quvchilarga ulashuvchi xodimlar;

- badiiy adabiyot o'quvchi kitobxonlar uchun mas'ul xodim;

- ilmiy adabiyot o'quvchilar uchun mas'ul xodimlar;

Shuningdek boshqa ko'plab xizmat ko'rsatish ishchi xodimlarni yo'naltirish. Bu kabi mas'ullar kutubxona faoliyatining sifatini oshiradi, kitobxonning ilmiy salohiyatini oshiradi.

Milliy va ma'naviy yuksalishi uchun xizmati behisob bo'ladi. Kutubxona har qanday millatning milliy boyligidir. Kutubxona milliy kolaritlarini saqlovchi va ajdodlardan avlodlarga yetkazuvchi eng asosiy bazadir. Kutubxona harqanday davlatning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, milliy, siyosiy va boshqa ko'plab xarakterli xususiyatlarni o'zida saqlovchi bazadir.

Kutubxonadagi kitoblardan foydalangan har bir shaxs ma'nan yetuk, ilmiy salohiyatga ega, o'zini va o'zgalarni hurmat qiluvchi shaxs bo'lib kamol topadi. Kitoblar bazasini ko'paytirsa albatta o'sha kitoblarni o'qirman ko'p bo'ladi.

Kutubxonalarning ta'minlanishini moliyaviy jihatdan quyidagi turlarga ajratib olamiz:

- mustaqil

- nomustaqil

Mustaqil kutubxonalar o'zini o'zi boshqara oladi. O'z mablag'iga ega bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, o'z hisob raqamiga ega bo'ladi. Mustaqil kutubxonalar har jihatdan o'zini o'zi boshqaradi. Nomustaqil kutubxonalar o'zlari bo'ysunadigan idora va tashkilotlar bo'ladi.

Moliyaviy jihatdan bevosita idora-tashkilotlarga bo'g'langan bo'ladi. Kutubxona fondlarini komplektlash turli xil bo'ladi. Mustaqil va nomustaqil kutubxonalar vazifasi eng avvalo kitobxonlarga xizmat qilish va ma'naviy yuksalishiga hissasini qo'shish.

Shuningdek, axborot-resurs markazida turli xil bepul xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilishi kerak. Elektron kutubxona faoliyatini yaxshilash, shuningdek zamonaviy infokiosk, Unibook qurilmasini o'rnatish hamda RFID texnologiyalarini yo'lga qo'yishi kerak. Kutubxona faoliyatini raqamli ro'yxatga olishni yo'lga qo'yish kerak.

Kitobxonlarni ro'yxatini shakllantirish, kitobxonlarga kitob berish va qaytarib olish, shuningdek foydalanuvchilarga elektron resurslar bilan tezkor xizmat ko'rsatish, ma'lum turlar asosida adabiyotlar ro'yxatini tuzish, internetda mavjud ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun sharoit yaratish kabi umumiy xarakterdagi funksiyalarni yo'lga qo'yish. Universitet xodimlari tomonidan tayyorlangan o'quv adabiyotlarga UDK klassifikatorini shakllantirish. Turli xil ommaviy tadbirlar uchun sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyun, PQ-4354-son qarorida shunday deyilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish" Prezidentimizning tariximizga, millatimizga, ajdodlarga va kelajak avlodga bo'lgan e'tiboridir.

Buningdek e'tibor kutubxona axboroti faoliyatini yaxshilaydi, sifatli va yaxshi sharoitda kitobxonning ilmga qiziqishi ortadi. Xalqi ziyoli bo'lgan mamlakatning ajdodlari qadrli, avlodlari ilmli bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotida axborot-kutubxona faoliyati qulay sharoitga asoslanib yo'lga qo'yilgan. Axborot olish ham raqamlashtirilgan shuningdek osonlashtirilgan. Madaniy-ma'rifiy xordiq chiqarishi to'g'ri yo'lga qo'yilgan.

Davlatning kutubxonaga e'tibori ziyoli qatlam ortib borishi va sharoit yaxshiligi ilmiy salohiyatning oshishiga olib keladi.

Milliy-tarixiy urf-odatlarini chuqur o'rganish, xalqning tarixiy voqelikka bo'lgan qiziqishlarini o'stirish. Milliy tarixni o'rganish har bir davlatning kelajagini belgilab berishi tabiiydir.

Ajdodlarga bo'lgan hurmat milliy madaniyat shakllanishi bilan bog'liq. Milliy madaniyat esa xalqning yuqori saviyaga ega ekanini ko'rsatadi. Xalqning savodxonligini oshirish ta'limga bo'lgan e'tiborni yanada takomillashtirishga olib keladi.

Bundan ko‘rinadiki, axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy hamda axborot salohiyatini, axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy xususiyatlarini, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

## REFERENCES

1. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
2. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.- Toshkeht.: Tafakkur, 2011.-520 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “O‘qituvchi”, 1994.350 b.
5. NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS KO‘RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI  
SH Norqulovich - International conference on multidisciplinary science, 2023  
Цитируется: 15 Похожие статьи
6. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN  
H Suvanov - Modern Science and Research, 2024  
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)
7. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir  
HN Suvanov - Science and Education, 2023  
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (2)
8. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI  
S Husniddin - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022  
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)
9. MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO‘LISHI  
H Suvanov - NRJ, 2024  
Цитируется: 4 Похожие статьи

10. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA SAIDOVA

H Suvanov - Modern Science and Research, 2023

Цитируется: 1 Похожие статьи Все версии статьи (2)

11. HUSNIDDIN SUVANOV CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" 2023/4/30. Страницы 50-53